

INKLYUZIV TA’LIMNING O‘ZIGA XOS INTEGRATSIYASI.

Komilova Fotima Maxmudovna
Andijon davlat universiteti
dotsenti, p.f.b.f.d.PhD.

Annotatsiya: Har qanday jamiyatda yosh avlodni jismons va aqlan sog‘-salomat, o‘zligini his etadigan, davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli hissa qo‘shadigan munosib fuqarolar bo‘lib etishishlariga katta umid bilan qaraladi. Ushbu maqolada inklyuziv ta’limning maqsad va vazifalari, ta’lim jarayonini integratsiyalash, alohida ehtiyojmand bolalar ham sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘z qobiliyati, qiziqishlari darajasida faoliyat ko‘rsatishlari, ta’lim va tarbiya olishi, kasb - hunar o‘rganishi va rivojlanishi mumkinligi haqida qisqacha fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, anomallik, qobiliyat, rivojlantiruvchi ta’lim, pedagogik konsilium, grafologiya, rehabilitatsiya, shaxsiy intilish, kompensatsiya,

Аннотация: В любом обществе есть большая надежда на то, что молодое поколение вырастет достойными гражданами, которые будут физически и психически здоровыми, почувствуют свою идентичность, внесут значительный вклад в развитие и процветание государства. В данной статье рассматриваются цели и задачи инклюзивного образования, интеграция образовательного процесса, дети с особыми потребностями вместе со своими здоровыми сверстниками могут работать на уровне своих способностей и интересов, получать образование и воспитание, профессию - призвание. мысли о том, как учиться и развиваться.

Ключевые слова: инклюзивное образование, аномалия, способности, развивающее обучение, педагогический совет, графология, реабилитация, личностное стремление, компенсация

Abstract: In any society there is great hope that the younger generation will grow up to be worthy citizens who will be physically and mentally healthy, will feel their identity, and will make a significant contribution to the development and prosperity of the state. This article discusses the goals and objectives of inclusive education, integration of the educational process, children with special needs, together with their healthy peers, can work at the level of their abilities and interests, receive education and upbringing, a profession is a vocation. thoughts on how to learn and develop

Key words: inclusive education, anomaly, abilities, developmental education, pedagogical advice, graphology, rehabilitation, personal aspiration, compensation

Dunyoga “O‘zbek modeli” deb nom olgan rivojlanish yo‘li bilan tobora ko‘proq tanilayotgan O‘zbekistonda bolalar huquqlarini himoya qilish, mkoniyati cheklangan bolalar uchun alohida e‘tibor va imtiyozlar berilgan. Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi №-638-sonli Qarorlari ham fikrimizning dalilidir.

Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta’lim tizimi inklyuziv ta’lim deb atash mumkin.

Ta’lim to’g’risidagi qonunning 20-moddasida inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo’lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo’lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi.¹

Bola huquqlari xalqaro Konvensiyaning 6-moddasida shunday satrlar bor: “Tirik qolish va rivojlanish”. Rivojlantiruvchi ta’lim 29-moddada “Ta’lim shaxsning yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o’stirishga yo’naltirilgan bo’lishi, bolani erkin jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak”. 2-va 28-moddalar inklyuziv ta’limga tegishli bo’lib, ularda kamsitishning oldini olish, ta’lim hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo’yilgan. Bunday ta’lim tufayli maxsus ehtiyojli bolalar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
- ijtimoiy xulq va o’ziga – o’zi xizmat ko’rsatish malakalarini yaratadilar;
- tengqurlari bilan turli o’yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar, jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka o’yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtni kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo’lishlari mumkin; ijobiy muhitda do’st orttiradilar, turli ko’ngilochar va bayramona dasturlarda ishtirok etadilar.²

Maktablarda psixologik-pedagogik konsiliumlar reja asosida tizimli olib borilishi kerak.³ Tibbiyot sohasining pediatriya, psixiatriya, ortopediya, ottoloringologiya, xirurgiya sohalari, bolalarni ko’rikdan o’tkazish, tashxis qo’yish, nogironlik turini aniqlash, jarrohlik, tibbiy reabilitatsiya ishlarini olib borish; Umumiy psixologiya, psixologik amaliyot, ijobiy psixologik muhit yaratish, psixologik treninglar olib boorish; maxsus psixologiyaning har bir yo’nalishi (surdopsixologiya, tiflopsixologiya, logopsixologiya, oligofrenopsixologiya) shu toifa bolalarning psixologiyasini o’ganadi, umumiy pedagogika, inklyuziv sinfdagi sog’lom o’quvchilar umumta’lim maktab ta’limi metodikalari, umumpedagogik metodik talablar asosida o’qitiladi,⁴

Yozish qobiliyatlarida buzilishi, grafologiya mavjud bo’lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish etarli bo’lmaydi. Bunda o’quvchilar imo-ishora yoki Brayl xatini puxta o’rganishlari kerak. Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og’zaki axborotni olishlari kerak. O’quv rejasini bunday differensiyalash o’qituvchilarda o’z ishlariga ijodiy kompetensiyaviy yondashishni taqozo etadi.

Inklyuziv va boshlang’ich tayanch korreksion sinflarga faqat bir xil tibbiy tashxisdagi o’quvchilar qabul qilinadi. Qarorga ko’ra, inklyuziv ta’lim sinflari o’qituvchilariga mehnatning alohida sharoitlari uchun har oyda to’lanadigan ustama haqi quyidagicha: sinfda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bir nafar bola uchun – lavozim maoshining 10 foizi; 2 nafar bola uchun – lavozim maoshining 20 foizi;

3 nafar bola uchun – lavozim maoshining 30 foizi; ikki va undan ortiq inklyuziv ta’lim sinflarida 4 nafar va undan ortiq bola uchun ta’lim-tarbiya ishlarini olib borgan o’qituvchilarga va maxsus pedagoglarga – lavozim maoshining 30 foizi miqdorida berilishi mumkin.

Maktabda inklyuziv ta’limga muhtoj bolalar uchun ta’lim kampusi imkoniyatlari, harakatlanishiga erkin sharoit, qo’ltiqtaq yoki maxsus aravachalarda

yuradigan bolalarga maxsus zinapoyalar orqali kirish sharoitlarini yanada qulaylashtirilishi kerak. Har bir sinf rahbari o‘quvchilarining imkoniyatlarini, qiziqishlarini hisobga olgan holda mashg‘ulot va undan tashqari jarayonlarda ham bolalarni faollikka tashkilotchiligini kuzatadi. Masalan, didaktik o‘yinlarni ham turli shakl va variantlarda o‘tkazilishini nazorat qiliadi va natijalaydi va rag‘batlantirishi mumkin.⁴ Shu o‘rinda masalan, STEAM ta’lim tizimi asosiylardan biri sifatida rivojlanmoqda.

STEAM bu – S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – mathematics. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinganda, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san‘at, matematika. STEAM ta’limi yo‘nalishini va «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari»da belgilangan 5ta sohani: jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; Bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish integratsiyasi ta’lim sifatini oshiradi. STEAM yondashuvi bizning ta’limga bo‘lgan qarashimizni o‘zgartirmoqda. Chunki, STEM ta’limi orqali bolalarning intellektual qobiliyatlarini, ilmiy va texnik ijodkorlikka jalb qilish, ularning aniq fanlarga ilk qiziqishini rivojlantirishga qaratilgan.⁵

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» — o‘rnini to‘ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o‘rnini to‘ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi. Demak, imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishda, pedagogik konsiulm, ota-onalar, mahalla etiligi, pedagog - psixologlar, mutaxassislarining hamkorlik integratsiyasini maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni 2020y.
2. Nishonova Z. T. Psixologik maslahat. Toshkent, 2006y.
3. Komilova Fotima Maxmudovna. Ta’lim tizimini boshqarishda pedagogik konsiliumning ahamiyati. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali 6-jild.11son 13.11.2023.252 b.
4. Yunusovna U. F. Inklyuziv ta’limni tashkil etishda innovatsion klassterli yondoshuv. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў Илимий-методикалык журнал 2023 1/2-сан 94b.
5. Qodirova F.R., D.M. Maxmudova. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni kitobxonlikka tayyorlashda Stem texnologiyalaridan foydalanish. “Global transformatsiyalar davrida maktabgacha ta’lim sifatini oshirish: innovatsiya va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Andijon 2023y. 9 b.